

**GEOLOGIK JARAYONLAR VA ULARNING YER SHARIDAGI
RIVOJLANISHIGA TA'SIRI****Axmatov Sobir Farxod o'g'li****Termiz davlat muhandislik agrotexnologiyalar universiteti****Neft-gaz va konchilik ishi kafedrası assistenti****axmatovsobir17@gmail.com****Buronov Otabek Samandarovich****FQKG23Aguruh 2-kurs talabasi****Buronovotabek064@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15171808>****ANNOTATSIYA**

Geologik jarayonlar – bu yer sharining tuzilishi, evolyutsiyasi va tabiiy resurslari hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydigan tabiiy hodisalar majmui hisoblanad. Ushbu jarayonlar yer qobig'ining ichki va tashqi kuchlari ta'sirida sodir bo'lib, ularning natijasida tog' jinslari shakllanadi, foydali qazilmalar konlari paydo bo'ladi va yer yuzasidagi relyef o'zgaradi. Maqolamizda geologik jarayonlarning asosiy turlari, ularning xususiyatlari va inson faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Erozya, Sedimentatsiya Zilzila, Nurashtirish, Plattektonika.

1. Geologik Jarayonlar Turlari

Geologik jarayonlar asosan ikki guruhga bo'linadi: ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) jarayonlar.

1.1. Ichki (Endogen) Jarayonlar

Ichki jarayonlar yer po'stining chuqur qatlamlarida sodir bo'ladigan va quyosh energiyasi bilan bog'liq bo'lmagan jarayonlardir. Bu jarayonlar quyidagilarga sabab bo'ladi:

- Magma faoliyati: Magma eritmasining yer po'stiga ko'tarilib, to'yingan holda vulqonlarning pайdo bo'lishiga olib keladi.

- Zilzila: Yer po'stining harakatlari natijasida zilzilalar sodir bo'ladi. Zilzilalar yer sharining ichki qismidagi tektonik kuchlar ta'sirida rivojlanadi.

- Plattektonika: Yer po'sti plitalari orasidagi harakatlar tufayli yangi tog' zinajatlari va dengiz botiqlari shakllanadi.

Masalan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati joylashgan hududda magmatizm va tektonik jarayonlar natijasida mis-kunfulori konlari shakllangan.

1.2. Tashqi (Ekzogen) Jarayonlar

Tashqi jarayonlar esa atmosfera, gidrosfera va biosfera ta'sirida sodir bo'ladi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Eroziya: Shamol, suv va muzlar ta'sirida tog' jinslarining parchalanishi va uzoqqa ko'chib ketishi.

- Nurashtirish: Atmosfera ta'sirida tog' jinslarining kimyoviy o'zgarishi va yangi minerallar hosil bo'lishi.

- Sedimentatsiya: Cho'kindilar to'planishi natijasida yangi yotqiziq turlari shakllanadi.

Masalan, cho'kindi rudalar, shuningdek, neft va gaz konlarining shakllanishida sedimentatsiya jarayoni katta ahamiyatga ega.

2. Geologik jarayonlar va inson faoliyati

Geologik jarayonlar inson faoliyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2.1. Ijobiy ta'sirlar

- Foydali qazilmalar konlarining shakllanishi: Magmatizm, metamorfizm va gidrotermal jarayonlar natijasida temir, mis, oltin va boshqa foydali qazilmalar konlari hosil bo'ladi.

- Tabiiy manbalardan foydalanish: Neft, gaz va suv manbalarining mavjudligi geologik jarayonlar natijasidir.

2.2. Salbiy ta'sirlar

- Tabiiy ofatlar: Zilzilalar, vulqonlar va sel oqimlari kabi tabiiy ofatlar odamlar hayotiga xavf soladi.

- Yer sathining deformatsiyasi: Kar'yer ishlarida yoki yer osti konlarini ishlash jarayonida yuz beradigan cho'kish va deformatsiyalar infrastruktura ob'ektlariga zarar etkazishi mumkin.

3. Geologik jarayonlarni o'rganish ahamiyati

Geologik jarayonlarni o'rganish orqali quyidagi muammolarni hal qilish imkoniyati tug'iladi:

- Foydali qazilmalar konlarini aniqlash va baholash;
- Tabiiy ofatlarning oldini olish va ularga qarshi samarali choralar ishlab chiqish;
- Yer osti suvlari va yer yuzasidagi ekologik muvozanatni saqlash.

Masalan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining ishlash jarayonida geologik tadqiqotlar yordamida yer osti suvlari va atrof-muhitga ta'siri minimallashtirilgan.

Geologik jarayonlar yer sharining rivojlanishi va inson faoliyati uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu jarayonlarni o'rganish va ulardan foydalanish insoniyatga foydali qazilmalar manbalarini aniqlash, tabiiy ofatlarga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Shunday ekan, geologiya fanining rivojlanishi va uni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Yermolov V.A. va boshqalar. "Geologiya". Moskva Davlat Universiteti nashri, 2004.
2. Galperin A.M. va boshqalar. "Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi". M.Nedra, 1989.
3. Milnuchuk V.I. "Obshaya geologiya". M.Nedra, 1989.